

## MARKAZIY OSIYO HUDUDIDA ANTIK DAVRDAN TO O'RTA ASRLARDA MATOLARNING BADIY BEZALISHI



**Gulchexra Gafurovna Alimova**

Oliy toifali o'qituvchi

P.Benkov nomli Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik  
maktabi

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-01-02>

**Annotatsiya:** Maqolada Markaziy Osiyo hududida antik davrdan to o'rta asrlargacha bo'lgan davrlari matolarning badiiy bezalishi haqida so'z boradi. Bu davr tarixi uzoq bo'lgani sabab, matolar bezalishi, suratlari haqida Antik davr haykalchalari, arxeologik qazilmalardagi matolar qoldiqlarining topilmalari, qadimgi devoriy suratlarni o'rganib, tahlil qilib ma'lumotlar olishimiz mumkin. Bu davr bizga juda qiziqarli tarixni ochadi, qadimgi matolar shu davrda yashagan aholining falsafiy kechinmalarini, qiziqishlarini ifoda etadi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, Antik davr, Ilk o'rta asrlik, badiiy matolar, So'g'd matolari, devoriy suratlar, "Hayot daraxti", haqiqiy va xayoliy jonivorlar, kompozitsiya, simmetriya, rapport.

**Аннотация:** Данная статья содержит краткое изложение художественного оформления тканей Центральной Азии от античности до средневековья. История очень древняя, несмотря на это, данную эпоху можно изучить исследуя античные статуэтки, археологические находки, настенную живопись того периода. Эта эпоха открывает нам интересную историю самобытности, философских взглядов народов Центральной Азии от античности до средневековья.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, античность, ранее средневековье, Художественные ткани, Согдийские ткани, Настенная живопись, "Древо жизни", реальные и мифические животные, композиция, симметрия, rapport.

**Abstract:** This article provides a brief overview of the artistic design of textiles in Central Asia from antiquity to the Middle Ages. The history is very ancient; nevertheless, this era can be studied by examining antique statuettes, archaeological findings, and wall paintings from that period. This era reveals an interesting history of the uniqueness and philosophical views of the peoples of Central Asia from antiquity to the Middle Ages.

**Key words:** Central Asia, Antiquity, Early Middle Ages, Artistic Textiles, Sogdian Textiles, Wall Painting, "Tree of Life," Real and Mythical Animals, Composition, Symmetry, Repeat Pattern.

Markaziy Osiyo hududiga tashrif buyurib, hayoti davomida kelib kuzatgan sayyohlar mahalliy tub aholisi haqida shunday bitiklar yozib qoldirgan ekan: «Aholisi xar xil o'ymakorlikda, saroy va binolar qurishda, jun matolar to'qishda, ipak bilan kashta tikishda mohir...» eramizdan avval I asr Ulug' Xan uyining tarixchisi Gibin (Пугаченкова Г. А., Ремпел Л. И., 1982). Bu bitiklar bizga markaziy Osiyo hududidagi aholisining eramizdan avval I asrda amaliy san'ati, shu jumladan matolarining badiiy bezalishi yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

Antik davr tarixchisi shuni ma'lum qiladiki, Iskandar Zulqarnayn yurishlari davrida Markaziy Osiyoda yunonistonliklarga ibodatxonalar, saroylar va xususiy uylarda ko'pincha «Zariadra va odatida» haqidagi taniqli mahalliy epik romanga ishlangan suratlar uchragan. Maqaliy Xvanida xudosi haqida arxeologik qazilma ishlaridan topilgan Xuvishkaning Kushon tangachalari orqali ma'lum bo'ldi. Tangachalarda tasvirlangan uning sharqona qiyofasida sharq dunyosi uchun sevimli bo'lgan qut-baraka ramzi – **anor** o'z aksini topgan.

Kushon tangachalarida er. av. II-I asrlarda tasvirlangan Amazonkalar (jangari ayollar) kiyimlarida biz ko'pincha **yugurayotgan to'liqin** (1 rasm) naqshini ko'rishimiz mumkin, bu naqsh o'zida Zardo'shtiylik dinining muqaddas belgisi bo'lib, Amazonkalar qiyofasidagi salobatli hukumdorlik siyomosini mujassam etgan. Tarix bir qancha Markaziy Osiyo ayollarining ismlarini saqlab qolgan: Baqtriyalik Artemida, Kir shoxini tormor etgan Tumaris, Parfiyalik Mitridat shoxining qizi Rodoguna, Sak malikasi Zarina va boshqalar.

Antik davr xaykalkalarida, tangachalarda va boshqa buyumlarda aks etgan kiyimlarni tahlil qila turib, faqatgina o'sha davrga tegishli bo'lgan matolarning, hozircha fizik xususiyatlaridan birini ta'riflay olish mumkin xolos, ya'ni Antik davrdagi matolar: zich to'qilgan, pishiq, og'ir, shuningdek o'rtacha yupqalikda va juda yupqa bo'lganligi va ular ko'pincha sidirg'a bo'lib, ularga naqshlar ehtimol tikma yoki gul bosish usulida birlashtirilgan (2 rasm).

Ilk urta asrlik davrida matolarda «Sossoniy uslub» keng tarqalgan. Bu uslubni, uning keng doirada stilizatsiyalangan turli xil haqiqiy va hayoliy jonivorlar (**o'rdak, qo'y, echki, she'r, grifonlar, qanotli afsonaviy maxluqotlar va x.k.**) tasvirlari ifodalab turadi. Bu uslubdagi matolar islamiy va gireh shakllarni o'zida mujassam etgan bo'lib jonivorlar suratlari aylana, to'g'ri to'rburchak ichida tasvirlangan. Jonivorlar tasvirlari umumiy kompozitsiyada dominant element bo'lib, uning atrofida sodda shaklga ega unsurlar: **tangacha, to'rt bargli gulchalar, barglar, marjonlar, yurakdalar** va boshqalar maydon bo'ylab tarqalib suratni o'zaro bog'lagan (3 rasm).

Ilk o'rta asr matolar applikasiya, kashtachilik, munchoqlar bilan turli xil bezash usullarini namoyon qiladi. Suratlar avval sodda ishlangan, vaqt o'tgan sari badiiy mato yaratuvchi ustalarning mahoratlari oshib borgan va noyob san'at asarlari yaratilgan. Matolarning badiiy bezagi amaliy san'atning boshqa turlari: me'morchilikka, kulolchilikka, yog'och, tosh, suyak o'ymakorligiga va b. larga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Badiiy matolar hukumdor va uning atrofida gilarining tabaqasini bildiruvchi asosiy belgilardan biri bo'lgan va inson boyligi haqida darak bergan. Xalqaro munosabatda ipak matolar – xalqaro pul vositasida ayirboshlangan. Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan ipak matolar suratlarining sevimli mavzulari marvaridlar doirasiga olingan, surati **qo'sh juft ishlangan arslonlar, bug'ular, itlar, qanotli otlar**, ba'zida «**hayot daraxti**» ishtiroki bilan ishlangan tasvirlar kiradi. Bu tasvirlarda aniq bir diniy marosim bilan bog'liqlikni ko'ra bilish qiyin, to'g'riroqi, ular o'z zamonasining epik she'riyati va adabiy manba'lariga tegishlidir.

So'g'd va Toxariston matolari haqida ayrim ma'lumotlar Bolaliktepa (Janubiy O'zbekiston) qazilma ishlaridan topilmalaridan ma'lum bo'ldi: paxta tolali, jun tolali, ipakli, yarim ipakli va b.. Bu matolar – **naqshinkor, marvaridlardan terilgan romb, yoki aylana shaklli yulduzlar va to'rt bargli gul** naqshlar bitilgan. O'rilishli kiper va sarja bo'lgan matolar VII asrning ikkinchi yarmiga tegishli bo'lib, ularda **tovuslar, echkilar va uchar otlar** tasvirlari marvaridli doira ichiga ko'sh-juft qilib ishlangan. VII-VIII asr oxiriga tegishli matolarda daraxt, ko'p bargli va xoch shaklli **to'p gul, qo'sh oybolta va qo'sh qanotli otlar, itlar** va boshqa mavzular tasvirlangan. VIII-IX asr oxiriga tegishli matolarda esa gullar, to'p gul, yurakchalar, o'rdaklar tasviri, tovuslar, shuningdek tumshuqida marvaridlar shodasi tasvirlangan qushlar va boshqa mavzulardagi suratlar uchraydi. Ushbu suratlarda tasvirlarning stilizatsiyalashgan ko'rinishlari juda jonli va aniq chiqqanligi e'tiborimizni tortadi. Xar bir suratda jonli tasvirning mazmun va mohiyati aniq saqlanib qolingan, uning grafik ko'rinishidan mazkur tasvir qaysi mavjudodga, yoki buyumga tegishli ekanligini aniq ko'rsata olishimiz mumkin.

Bolaliktepa matolari jun, burma iplardan murakkab reps o'rilishida to'qilishi shevron ko'rinishidagi mayda naqshlarni beradi. Bu namunalarni taqqoslash yo'li bilan tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo ipak matolari V-VIII asrlarda Vizantiya va Misr matolari bilan umumiylik tomonlari ko'p bo'lgan, shuningdek So'qd matolari Buyuk ipak yo'li orqali jaxonga keng tarqalib Old Osiyo va Vizantiyaga ayirboshlash maqsadida nafaqat Eron, balki shimoliy yo'l bilan Xorazm va Shimoliy Kavkaz orqali ham olib chiqilgan. So'qd matolari Eron va Vizantiya matolariga juda uxshash bo'lib, bu matolarda Eron, Iroq, Suriya, Koptlik Misr va Vizantiya matolarining naqsh mavzulariga oxshashlikni kuzatish mumkin.

So'g'd matolarning o'ziga xosligini ko'proq ulardagi suratlarning uslubiyati va kompozitsiyon tuzilishi belgilaydi. Bu matolarda doira ichida ma'lum bir mavzu ko'pincha ko'zguli simmetriya qonuniyatiga ko'ra tasvirlangan va rapportli takrorlanish bilan matoning butun maydonini to'ldirgan. Ba'zi hollarda asosiy mazmunga ega naqsh boshqa to'ldiruvchi chiziqli naqshlar bilan uyg'unlashib umumiy bir kompozitsiya hosil qilgan. Suratlarda kompozitsiyasida sodda bir ritmik qonuniyatga bo'ysungan naqshlardan, to murakkab bo'lgan manzaralar (urush, ov, xayvonlar bilan olishuv, hukumdolar huzuri) nixoyatda mahorat bilan tasvirlangan. Sosoniylar uslubiga xos bo'lgan bunday kompozitsiya qonuniyati mazmunli suratni, yoki manzarani biror bir (aniq naqshlar bilan belgilangan yoki umuman belgilanmagan) doira, oval yoki to'rtburchak ichiga kompanovkalashdan iboratdir. Bunda hukumron mavzu atrofiga joylashtirilgan chiziqli yoki ikkinchi darajali naqshlar umumiy kompozitsiyani to'ldirib uni davom ettiradi. Suratlarda uslubida Vizantiya va Misrdan farqli o'laroq Su'g'd mato chizgilarida ellinik ta'sirlar mavjuddir.

VI-VII asrning Markaziy Osiyo xududidagi devoriy rangtasvirning noyob namunalari o'rta asr matolarning qiyosiz suratlarini bizga taqdim etdi. Bolaliktepa, Varaxsha, Afrosiyob va Panjikent devoriy suratlardagi tantanaviy kiyimlarda amaldorlar, saroy bazmlari, elchilar kutib olinishi, ov manzaralari, shu bilan birga turli hil xaqiqiy va hayolijonivorlarning xarakterli korinishlari tasvirlangan. Bu suratlardan ilk o'rta asrlar davridagi Markaziy Osiyoning turmushida ishlatilgan badiiy matolar haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Afrosiyob arxeologik qazilma ishlarida 11x11 m.kv. va 7x7 m.kv. yaxshi saqlangan suratli xonalar mavjudligi aniqlandi, ularning devorlarida to'y marosimidan lavha, So'g'd hukumdolarining xorijiy elchilarni qabul qilishi, bu elchilarning yo'ldagi sarguzashtlari, ov va yirtqich xayvonlar bilan olishuv manzaralari tasvirlangan. Bu devoriy rasmlar surati aniq va detallarga boyligi, saqlanib qolingan so'g'd yozuvlari borligi bilan ahamiyatlidir (4 rasm). Tasvirlangan insonlar egnidagi liboslarida matolarining badiiy bezalish suratlari aniq tasvirga ega bo'lib, ulardagi ranglari asosan oq, ko'k, sariq, qizil va zangori ranglarni mujassam etgan.

Devoriy suratlarda aks etgan matolar kompozitsiyasiga e'tibor qaratsak, bu erda xam yuqorida aytib utgan usulga muvofiq matolarga romb va doira shaklida terilgan marjonlar, dug'achalar, baliqlar, insonlar portreti, yurakcha belgilari va tamg'alarni tasviri tushirilgan. Qanotli mavjudotlardan: grifon, semurg', qanotli arslon va otlar, echkilar, shuningdek qo'sh o'rdaklar, qirg'ovul, tovuqlar asliga oxshatib mahoratli ishlanganligi bilan e'tiborimizni tortadi. Ba'zida suratlar ma'nosi ertak va qissalar mazmunini gavdalanitiradi, shundan, Panjikent devoriy rasmlarida tasvirlangan asl zodalar egnilaridagi kiyimlarida Ezop qissalari asosida tuzilgan suratlar, masalan "Tilla tuxum ko'ygan o'rdak" va boshqalarni uchratish mumkin (Лобачева Н.П.-Костюм народов ср.Азии). Devoriy suratlarda tasvirlangan matolar xususiyatiga ko'ra, ularning ba'zi birlari: og'ir vaznli, tilla va kumushdan tikilgan parcha deb taxmin qilish mumkin.

IX-X asrlarga tegishli matolar namunalarida ilk urta asrlik matolar an'analari hamon saqlanib qolingan. Biroq badiiy to'qimachilik shahar va qishloqlarda o'z markazlariga ega bo'lib, sekin asta rivojlanib, takomillashib borgan. Arab mualliflari mahalliy yoki chetdan keltirilgan bir yoki bir necha matolarni ishlab chiqargan o'nlab qishloqlarni sanab o'tmoqdalar. Ilgari ipakdan ishlab chiqarilgan zandonachi matolarining, shu davrga kelib paxta tolasidan ishlab chiqarilishi uning narxini ancha arzonlashtirgan va Markaziy va Old Osiyoga keng tarqalishiga sabab bo'lgan. X-XI asrda Somoniylar shahar va qishloqlarida ishlab chiqarilgan bu matolarining suratlari kompozitsiyasi hamon sosoniylar uslubida ishlangan. Umuman olganda bu uslub butun O'rta sharq badiiy matolariga xos uslub bo'lgan: "Hayot daraxti" tagida qo'sh juft qilib ishlangan qo'ylar, xuddi shu daraxt tagida chavandoz va grifonlar, daraxt atrofida o'ljasiga tashlanayotgan yirtqich xayvonu-qushlar, ikki boshli burgutlarni ko'rish mumkin. Bu matolarning o'ziga xos tomoni shundaki, matolarda biror bir ma'noga ega surat aylana ichiga tushirilib, ba'zilar kufiy yozuvlar bilan o'ralgan. Saljuqiylar davriga kelib (XI-XIII asr) aylana ichiga suratlarning joylanish uslubi butun musulmon olami va uning atrofiga tarqalib ketdi. Bu davrda tasvirlarning keskin o'zgarishi, epigrafika va aniq naqshdan chiqish hollari kuchayishi kuzatiladi. Markaziy Osiyoga xos badiiy matolar uslubining rivojlanishida xam xuddi shu bosqich katta rol o'ynagan.

Tasvirlardagi stilizatsiya ilk oʻrta asrlik matolarga xos boʻlgan aniqlikni yoʻqota bordi. Musulmon olamining mavjudotlar tasviriga boʻlgan eʼtirozi badiiy matolarda jonli tasvirlarni umuman yuq qilib yubormagan boʻlsada, ularning grafikasini kuchli soddalashtirilib, stilizatsiyalashishiga olib keldi. Buning oʻrnida islomiy va girex naqshlar, naqshinkor arab yozuvlari (arabeskalar) rivojiga keng imkoniyat ochildi.

Badiiy matolarning rivojlanishi butun Oʻrta Sharq uchun XIV-XV asrlarda Temur va Temuriylar davrida keng tus oldi. Movaraunnaxrga jamlangan badiiy matolarning mohir ustalariga, bu erda texnologik va ijodiy jihatdan kamol toptirishiga zamin yaratildi. Samarqandda ishlab chiqarilgan matolar oʻsha davrda jahon shuhratini qozongan edi. Shu davrda Sefevidli kabi arabeskali naqshinkor matolar gullab yashnashi davri boʻldi. Biroq chetdan keltirilgan matolar tarkibida, ayniqsa eronli matolarda **jannat bogʻlari** bilan birga **ertak qushlari va jonivorlari** tasviri tushirilgan matolar xam mavjud.

Antikdan to oʻrta asr davri matolarning bezalishi uslubiyati zamonaviy insonda katta qiziqish uygʻotadi, biroq bu davrning bizgacha yetib kelgan manbaalari juda oz. Shunga qaramay, antik davr haykalchalari, arxeologik qazilmalarda topilgan mato qoldiqlari, qadimgi devoriy suratlar bizga bu noyob davr haqida oʻrganib, tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Qiziqarli tarixga ega Markaziy Osiyo hududining qadimgi matolari shu davrda yashagan aholining falsaviy kechinmalarini, turmush tarzini va qiziqishlarini ifoda etib, mulohaza uchun, beqiyos manbalarni ochadi.

**1 rasm.** Yugurayotgan toʻlqin naqshi



**2 rasm.** Soʻgʻd haykalchalari, antik davr



**3 rasm.** “Sosoniylar uslub” matolarining namunalari



#### 4 rasm. Afrosiyob devoriy surati



#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И.- «Очерки искусства Средней Азии», М.:Искусство, 1982 г.
2. Пугаченкова Г.А. – «Искусство Бактрии эпохи Кушан»,Искусство 1979г.
3. Лобачева Н.П.-«Костюм народов Средней Азии: Историко-этнографические очерки», Среднеазиатский костюм раннесредневековой эпохи (по данным стенных росписей). М.:Наука,1979 г.
4. Internet: <https://sogdians.si.edu/sidebars/sogdian-textiles-along-the-silk-road/>